“Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” o’zbek adabiyotiga tegishli bo’lgan xalq vakillarining ijodi, ular yaratgan asarlar badiiyati, ularning kelib chiqishi tarixi, genezisi, bir birlaridan farqli tomonlari, hozirgi davr o’zbek adabiyotining yutuq va muammolari, ijodkorlarning o’ziga xos uslubi kabilar to‘g’risida ma’lumot beradi. “Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” faniga 26 soat ma’ruza, 18 soat amaliy, 18 soat seminar, 50 soat mustaqil ta’limga jami – 112 soat ajratilgan.

“Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanining ahamiyati ular yaratgan asarlarni o’rganish, o’zbek xalqining ijtimoiy hayoti va adabiyotini tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, ular yaratgan asarlarda tasvirlangan adabiy qahramon va real hayat kishisi o’rtasidagi farqlarni ajratish, jahon adabiyoti va adabiyotshunosligidagi an’analarni kirib kelishi kabilar bilan belgilanadi.

Talabalar bu fanni o’rganish orqali hozirgi jarayonda yaratilgan asarlarning spesifik belgilari, Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon, badiiy asarlarning tarkibiy qismlari, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon ruhiyati ramziy va majoziy talqin kabilar to‘g’risida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san’atshunoslik yo‘nalishidagi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fanni o‘qitishning asosiy maqsadi – Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon bilan tanishish, badiiy asarlarni tahlil qilish, badiiy matnni chuqr va turli metodlar asosida talqin qilish, boshqa xalqlar yaratgan asarlarga qiyoslash, ular yaratgan asarlar badiiyatini ilmiy asarlar asosida o’rganish, umuman, talabalarda adabiyotshunoslarga xos ilmiy-estetik tafakkurni shakllantirish sanaladi. Shu ma’noda quyidagi vazifalar muhimdir:

- Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayonda yaratilgan asarlarni o’rganish, tadrijiy taraqqiyotini tushuntirish;
- o’zbek adabiyoti rivojining asosiy tamoyillarini o’rgatish;
- badiiy asarni ijtimoiy-estetik hodisa sifatida tahlil va talqin qilish usullarini o’rgatish;
- jahon, rus va boshqa xalqlar adabiyoti bilan uzviy birlikda o’zbek adabiyotining ahamiyatini baholash ko‘nikmasini shakllantirish;
- talabada estetik didni, badiiy so‘zni his etish ko‘nikmasini hosil qilish;

- adabiy jarayondagi turfa xil asarlarni o‘ziga xosligini asoslash va tushuncha berish;
- adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma Va malakasiga qo‘yiladigan talablar

Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayonda yaratilgan eng yaxshi asarlarni ilg‘ash, adiblar tomonidan yaratilgan asarlarning badiiy matnini tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho bera olish, adabiy hodisalarini ilmiylik va mantiqiylilik asosida o‘rganish, badiiy tafakkur va estetik tasavvurning uyg‘unligini ta’minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatni yuksaltirish, badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: myuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va mul’timedia vositalalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylanadiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalg qilish.

“Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligiga diqqat qilish.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo’llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari: o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borishdan iborat. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “poinport” dasturlaridan foydalilanildi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy ko‘rsatkichlaridan foydalilanildi, tarqatma materiallar tayyorланади, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

**Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy
jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi – adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san’at sosiologiyasi, psixologiya, falsafa fanlarida o‘rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog‘langan.

Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli metodlari orqali o‘tkaziladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni .Talabalarda Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon fani bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, adabiy tur va janrlar, badiiy asarlarni metodologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo‘lish va ularni amaliyatda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

«Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon» fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalarining ba’zi qirralari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlarining elektron variantlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalilanildi. Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilg‘or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon” (2-qism) fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:

| T/n | Mavzular nomi | Jami soat | Ma’ruza | Amaliy | Seminar | Mustaqil ta’lim |
|-----|--|-----------|---------|--------|---------|-----------------|
| 1. | Kirish. Fanning maqsadi, predmeti. | 2 | 2 | | | |
| 2. | I BOB. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon va o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidchilik | 28 | 6 | 6 | 6 | 10 |
| 3. | II BOB. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayonda nasrning o‘rni. | 40 | 8 | 6 | 6 | 20 |
| 4 | III BOB. She’riyat, publisistika, adabiy tanqidchilik va Zamonaviy | 42 | 10 | 6 | 6 | 20 |

| | | | | | | |
|--|-------------------------------------|-----|----|----|----|----|
| | o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon. | | | | | |
| | Jami | 112 | 26 | 18 | 18 | 50 |

Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi.

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali olib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinadi.

Birinchi bob

Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon va o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidchilik. O'tmis adabiyotining bugungi adabiy jarayonda o'rganish tamoyillari. Tahlil. Talqin. Mulohaza. Fikrlash xususiyatlari. Adabiy merosga bo'lgan munosabatlarning tubdan o'zgarish jihatlari va sasbablari. Ma'naviy merosimizdan o'rin olgan. Buyuk so'z san'atkorlari, ularning asrlar osha bizgacha yetib kelgan yetuk asarlari va bugungi qarashlar asosida o'rganilishi. A.Navoiy, Bobur, Shayboniyxon, A.Yassaviy, Mashrab, So'fi Olloyor kabi ijodkorlar yaratgan asaralar asosida asoslash.

Adabiyot nazariyasi haqida ilk qarashalar. Nazariy fikrlarning rivoji va taraqqiyot mezonlari. Adabiy-nazariy qarashlar zamirida ilgari surilgan tushunchalar. Nazariy me'roslarni teranroq anglash uchun adabiy jarayonga jahon adabiyoti miqyosida yondashish lozimligi. Shu qarashlar asosida adabiy jarayonda maydonga kelayotgan badiiy asarlarga yangicha me'zonlar va qoidalar asosida tahlil etish. Yangicha qoidalarning paydo bo'lish asbablari.

XX asr adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va asosiy xususiyatlari, yangi adabiyotning maydonga kelishi.

XX asr adabiyotining rivojlanishi etaplari va nisbiy tarzda davrlashtirish muammosi. Davrlashtirishdagi turlicha qarashlar. Sabablar. Asoslар. Tahlillar. Qarashlar. Taraqqiyot bosqichlari davomida badiiy tafakkur tadriji va rivojlanishi xususiyatlarini ko'rsatib berish. Shu asosida turlicha qarashlarning maydonga kelish sabablarini ko'rsatish.

Ijtimoiy-tarixiy muhit, adabiyot va badiiyat olamidagi o'zgarishlar, uyg'onish davri va badiiy tafakkur taraqqiyoti.

Ikkinchi bob

Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayonda nasr va memuar asarlarning o'rni.

Romanchilik taraqqiyoti.

O'zbek romanchiligining o'zgarish jarayoni. Modern romanlar. Tarixiy romanlarda tarixiy voqyelik, ijtimoiy muhit va badiiy xarakter, tarixiy kechinma talqini. Tarixiy romanlarda makon, zamon, vaqt kategoriyalari. Romanchilikda

falsafiylik, konsepsuallik muammosi. Jahon adabiyotidagi romanchilik taraqqiyoti bugungi o‘zbek romanchiligi. Romanchilik va adabiy-tanqidiy qarashlar.

O‘zbek hikoyachiligi, qissachiligi va memuar asarlarning o‘rni

O‘zbek hikoyachiligi va qissachiligidagi ham jiddiy o‘zgarishlar vujudga kelganligini izohlash. Salomat Vafo, Nazar Eshonqul, To‘xtamurod Rustam kabi ijodkorlarning qissa va hikoyalaridagi ramziy tasvir xususiyatlari. Majoziylik. Adabiy jarayonda har ikki janr haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarga to‘xtalib o‘tish, ularning muammosi, bahsli tomonlariga urg‘u berish.

Memuar janrdagi asarlarning yaratilishi jarayoni. N.Karimovning «Cho‘lpon», X.Sultonning «Boburiynoma» asarlari misolida fikr yuritish.

Bolalar adabiyoti va adabiy jarayon

Bolalar adabiyoti va uning taraqqiyoti. Bolalar adabiyotida xarakter, konflikt va ruhiy kechinma. Bu adabiyotning rivojida Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi ijodkorlarning o‘rni. Bolalar adabiyoti haqidagi mulohaza va baslar xususida. Bolalar adabiyotidagi muammolar, tahlil, talqin masalasiga doir qarashlar. Bolalik saltanati va ilmiy texnik taraqqiyot muammolari.

Uchinchi bob

She’riyat, publisistika, adabiy tanqidchilik va Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon

Ijtimoiy-badiiy tafakkuri taraqqiyotining hozirgi bosqichida so‘z san’ati tamoyili va uning xususiyati. Har qanday badiiy asar, hatto she’riyat ham muallifning o‘zigagina tegishli fikru tuyg‘ular, ko‘ngil mayllari natijasi ekanligi. Faqat millat, vatan, yurt singari ulug‘ miqyosli tushunchalar ham ijtimoiy maqsadlarning emas, muhabbat, ezgulik, iztirob deb atalmish yurakka doir nozik tuyg‘ularning tadriji ekanligini ko‘rsatish. Inson tuyg‘ulariga ko‘chmagan dard quruq havoyi gap bo‘lishi. Qalb iztiroblarini, ko‘ngil motivini she’riyatdagi talqini. She’riyatda teran falsafiy fikrlarning betakror poetik ifodasi darajasidagi talqin haqida. Oz so‘z Bilan ko‘p ma’no ifodalash, kutilmagan va jozibali tashbehlardan foydalanish. O‘zbek she’riyatining keyingi yillardagi taraqqiyoti va milliy adabiyotimiz rivojlanish bosqichida ekanligini isbotlash, faktlar misolida ko‘rsatish. Bu o‘rinda Sirojiddin Sayyid, Azim Suyun, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzayeva, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar she’riyati misolida tahlil qilish.

Keyingi yillar she’riyati va modernism, poetik o‘zgarishlar.

She’riyatda ma’lum bir voqelik yoki tushunchaga qanday bo‘lsa shundayligicha emas, balki aksincha yondashuv maylining kuchayishi. Har bir hodisa va so‘zga farqli jihatlardan yondashib, uning inson qalbi va shuuridagi ta’sir

kuchini turlichalarda tasvir etishning yetakchilik qilishi. Bunda ramziy ma’no va mohiyat yaklanibgina qolmay, shu bilan birga shaklda ham orfografik qonun-qoidalar chetlab o’tilib, turli shaxsiy o‘yinlar orqali orginallikka, o‘ziga xoslikka intilishining kuchayib borishi sabablarini asoslash. Bu o‘rinda A.Qutbiddin, Zebo Mirzayeva, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlarning asarlarigi to‘xtalib o‘tish va jahon she’riyatining yorqin vakillari bilan qiyoslash asosida tahlil qilish. She’riyatdagi ma’no tovlanishlari, qalban his qilish uchun yozilishi, shoirning tayyor g‘oyalardan qochishga intilishi, fikrdan tuyg‘u, tuyg‘udan Yangi bir fikr yaratishga harakat qilishi. Turli kombinasiyalar orqali so‘z o‘yiniga erishishga entilish, alliterasiya, anafora va bular natijasida insonning his-tuyg‘ulariga, tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishini izohlash.

Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasি

Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasining o‘ziga xos tamoyillari, janr xususiyati. Dramaturgiya va uning janrlari, bugungi komediyalar. Dramaturgiyada inson talqini, tarixiy mavzu ifodasi. «Qatag‘on» (O‘.Hoshimov), «Alpomishning qaytishi» (U.Azim), «Sohibqiron» (A.Oripov).

Sh.Boshbekov dramalarida hayotiy voqyelik tasviri va badiiy konflikt. Istiqlol davri dramaturgiyasida hayotiy konfliktlarning haqqoniy ifodasi. U.Azimning «So‘ngsiz kechalar» dramasida hayotiy haqiqat va badiiy talqin muammosi. Cho‘lpon obrazining badiiy talqini. Dramadagi ijodkorlar obrazining badiiyati. Hozirgi melodramatik filmlar, ulardagi taqlidchilik, sayozlik.

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarining kalendar tematik rejasi

| T/n | Ma’ruza mavzulari | soat |
|-----|---|------|
| 1 | Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon fanining adabiyotshunoslikdagi o‘rni. Globallashuv davri o‘zbek adabiyoti. | 2 |
| 2 | Hozirgi o‘zbek she’riyatida janrlar, poetik tasvir xususiyati. | 2 |
| 3 | Keyingi yillar she’riyatining o‘ziga xosligi. O‘zbek she’riyati va modernizm. | 2 |
| 4 | Hozirgi nasr xususiyatlari. | 2 |
| 5 | Hozirgi o‘zbek qissalari. | 2 |
| 6 | Hikoyachilik taraqqiyoti | 2 |
| 7 | Hozirgi o‘zbek romanchiligi. | 2 |
| 8 | Hozirgi o‘zbek tarixiy romanchiligi. | 2 |
| 9 | Badiiy publisistik janrlar. | 2 |
| 10 | Dramaturgiya va adabiy jarayon | 2 |
| 11 | Adabiy tanqidchilik va Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon | 2 |
| 12 | Bolalar adabiyoti va Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon. | 2 |
| 13 | Tarjimachilik taraqqiyoti va adabiy jarayon. | 2 |
| | JAMI | 26 |

Amaliy mashg‘ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular

Amaliy mashg‘ulotlar talabalarda badiiy tahlil, ilmiy-nazariy muqoyasa, badiiy asarga problematik yondashuv malakasini shallantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy davrlar mohiyati, poetik o‘ziga xosligini anglashda amaliy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayonning muammolari to‘g‘risida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

Amaliy mashg‘ulot mavzulari:

Yangi o‘zbek adabiyotining maydonga kelishi

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanining pridmeti, maqsadi va vazifalari. “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon”da o‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi. 80-yillarning ikkinchi yarmi adabiyotidagi yangicha talqinlar. Adabiyotning siyosiy tazyiqdan xoli bo‘lishi. Adabiyot va jamiyatda yangicha qarashlar.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayonda roman janri

Adabiy jarayonda romançilikning shakllanishi. Bu davrda yaratilgan tarixiy romanlarda tarixiy voqyelikning aks etishi. Tarixiy romanlarda tarixiy shaxs siymosi va badiiy talqini. Zamonaviy romanlardagi o‘ziga xosliklar. Zamonaviy romanlarda uslubiy o‘zgarishlar. Ramziylik, polifonik roman.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayonida hikoya va uning asosiy xususiyatlari. Keyingi yillar o‘zbek hikoyachiligi. Hikoya janrida davr va shaxs talqini. Hikoyalarda ramziy – majoziy talqin. X.Do‘stmuhammadning “Jajaman” hikoyasi tahlili. Hikoyada ramziy obrazlar. N.Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyalari tahlili. Hikoyada obrazlar talqini. Keyingi yillar hikoyachiligi va adabiy tanqid. Ijodkor uslubi.

Qissachilik taraqqiyoti va adabiy jarayon

Keyingi yillar qissachiligi haqida mulohazalar. Qissachilik taraqqiyoti va adabiy-tanqidiy fikrlar. Qissa janridagi uslubiy izlanishlar. Tog‘ay Murod qissalarini badiiyati. Normurod Norqobilov qissalarining o‘ziga xos xususiyatlari. Tog‘ay Murod qissalarida milliy ruh va xarakter talqini. Normurod Norqobilov qissalarida tabiat va shaxs uzviy birligi talqini.

Modernizm va o‘zbek romançiligi

Modernizmning o‘zbek romançiligiga kirib kelishi. O‘zbek modern romanlarida o‘ziga xoslik. Omon Muxtarning “To‘rt tomon qibla” romani. Asardagi obrazlar tizimi. Romanning o‘ziga xosligi.

“Muvozanat” romani tahlili

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida obrazlar talqini. Ramanda ijtimoiy muhit va badiiy xarakter. Asardagi uch obraz talqini. Rihiyat va kanflikt talqini. Ziyoli shaxslar qismati va fojeasi. Roman haqidagi adabiy tandiy qarashlar.

Zamondoshlarimiz obrazi: Mirazim, Yusuf, Zahro, Amir, Said obrazlarini badiiy talqini.

Tarixiy romancilik taraqqiyoti

Muhammad Ali ijodida tarixiy mavzu. Adibning “Ulug‘ saltanat” romanı haqida mulohazalar. “Ulug‘ saltanat” romanida tarixiy shaxslar obrazi talqini. Romandagi Amir Temur obrazi. Romandagi Temur ruhiyatining yoritilishi. Asarda tarixiy voqyeylik va badiyati. Yozuvchi badiiy mahorati.

Modernizm va keyingi yillar she`riyati

Keyingi yillar she’riyati haqida mulohazalar. She’riyatda tarixiy mavzuning ifodalanishi. She’riyatda shakliy va uslubiy izlanishlar. She’riyatda lirik kechinma, lirik qahramon talqini. Keyingi yillar she’riyati va adabiy tanqidiy qarashlar.

She’riyatdagi o‘zgarishlar

80-yillar o‘zbek she’riyatidagi o‘zgarishlar. 80-yillar she’riyatida falsafiylik, mavzu va g‘oya. She’riyatda yangicha ruh va uning ifodalanishi. A.Oripov. Mustaqillik davri she’riyati. E. Vohidovning mustaqillik davri she’riyatida o‘ziga xoslik.

Mustaqillik davri dramaturgiyası

Mustaqillik davri dramaturgiyasida mavzu rang-barabgligi. Dramaturgiyada xalq urf-odatlarining tasviri. U.Azimning “Alpomishning qaytishi” dramasi tahlili. Dramadagi obrazlar tizimi.

“Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fani bo‘yicha amaliy mashg`ulotning kalendar-tematik rejasi

| t/n | Amaliy mashg‘ulot mavzulari | soat |
|-----|---|------|
| 1 | Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon fanining maqsadi | 2 |
| 2 | Hozirgi ozbek qissalarining taraqqiyoti | 2 |
| 3 | Hozirgi hikoyachilik: janriy izlanishlar | 2 |
| 4 | Istiqlol va romanchilik taraqqiyoti | 2 |
| 5 | Modernizm va o‘zbek romanchiligi | 2 |
| 6 | Hozirgi o‘zbek she’riyatida lirik qahramon talqini | 2 |
| 7 | Modernizm va o‘zbek she’riyati | 2 |
| 8 | Hozirgi bolalar adabiyoti | 2 |
| 9 | O‘zbek dramaturgiyasida qahramon masalasi | 2 |
| | JAMI | 18 |

Seminar mashg‘ulotlarida tavsiya etiladigan mavzular

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon va adabiy tanqid.

Adabiy tanqidchilik taraqqiyoti. Adabiy tanqidiy fikrlardagi o‘zgarishlar. Tanqidiy tushunchalardagi o‘ziga xosliklar. Istiqlol davri tanqidchiligi. Adabiy tanqidagi o‘zgarishlar.

Sh.Xolmirzayev hikoyalarini tahlili

Adib hikoyalarining o‘ziga xosligi. “Bandi burgut” hikoyasi tahlili. Hikoyada ramziy talqin. “Ozodlik” hikoyasi haqida. Hikoyada obrazlar tizimi : Omon, Mansur, Hikoyada ruhiy talqin va badiiy konflikt.

Keyingi yillar qissachligda milliy an'analar talqini

Keyingi yillar qissachiligidagi badiiy uslubiy izlanishlar. N.Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasining o‘ziga xos xususiyatlari. Asarda yovuzlik va ezgulik talqini. Qissadagi obrazlar tizimi. Salom mergan xarakterida konflikt. Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasi tahlili.

Hozirgi o‘zbek lirikasidagi o‘ziga xosliklar

Modernizm va keyingi yillar she’riyatini. She’riyatda ramziylik, falsafiylik. Faxriyor she’riyatining o‘ziga xosligi. Abduvali Qutbiddin she’riyatni. Salim Ashur she’riyatni. She’riyatdagi uslubiy izlanishlar.

Hozirgi o‘zbek hikoyasida qahramonlar masalasi

Hozirgi o‘zbek hikoyasida qahramonlar masalasi janrlar va uning taraqqiyoti. Badiiy qahramon masalasi va mustaqillik davri adabiyoti. Istiqlolva hikoya janri, uning xususiyatlari. Hikoya va uning mavzu jihatdan turlari. Asosiy qahramon talqini masalasi.

Fantastik adabiyot va adabiy jarayon

Fantastik asarlarning maydonga kelishi. Fantastik asalar badiiyati. Fantastik asarlarda hayotni aks ettirish tamoyillari. Xojakbar Shayxov ijodida fantastika. “Tutash olamlar” asarida fantastik tasvir. Fantastika va realizm. Badiiyat mezonlari va fantastik asarlar.

O‘zbek romanchiligidagi ramziylik va majoziylik

Modernizm va uning xususiyatlari. Postmodernizm haqida tushunchalar. Modernizm va adabiy-tanqidiy qarashlar. T.Rustamning “Kapalaklar o‘yini” romanida majoziylik. Romanidagi obrazlar tizimi. Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla” asari haqida mulohazalar. Isajon Sultonning ”Boqiy darbadar”, ”Ozod” romanlari haqida mulohazalar.

| t/n | Seminar mashg‘ulotlar mavzulari | soat |
|------------|--|-------------|
| 1 | Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon va adabiy tanqid. | 2 |
| 2 | Sh.Xolmirzayev hikoyalarini tahlili | 2 |
| 3 | Kiyingi yillar qissachligda milliy an'analar talqini. | 2 |
| 4 | Hozirgi o‘zbek lirikasidagi o‘ziga xosliklar | 2 |
| 5 | Hozirgi o‘zbek hikoyasida qahramonlar masalasi | 2 |
| 6 | Fantastik adabiyot va adabiy jarayon | 2 |

| | | |
|---|---|----|
| 7 | O'zbek adabiyotida dramaturgiya taraqqiyoti | 2 |
| 8 | Hozirgi o'zbek adabiyotida ma'rifiy mavzu | |
| 9 | Yoshlar nasri tahlili | 2 |
| | JAMI | 18 |

Mustaqil ta'lism tashkil etishning shakli va mazmuni

“Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, asarlarni tahlil etadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiy asarlarni o'rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lism natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 28 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'liming mazmuni va hajmi

| t/n | Mustaqil ta'lism mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajarilish muddati | Hajmi (soatda) |
|-----|-------------------------------|---------------------------------------|--------------------|----------------|
| 1. | Abduvali Qutbiddin she'riyati | Shoir she'riyatidan 2 she'r yod olish | 1-2 hafta | 4 |
| 1 | Faxriyor she'riyati | Shoir she'riyatidan 2 she'r yod olish | 2-3 hafta | 4 |

| | | | | |
|-----|--|--|-------------|---|
| 2. | U.Normatov – adabiy tanqidchi | Asarlarini o‘rganish | 3-4 hafta | 2 |
| 3. | Ozod Sharafiddinov – iste’dodli adabiy tanqidchi | Asarlarini o‘rganish | 4-5 hafta | 2 |
| 4. | O.Yoqubovning “Osiy banda” romanida xarakter talqini | Asarni tahlil qilish | 5-6 hafta | 2 |
| 5. | X.Do’smuhammadning “Bozor” romanida Fozilbek obrazi | Asarni tahlil qilish | 6-7 hafta | 2 |
| 6. | N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida ramziylik | Asarni tahlil qilish | 7-8 hafta | 4 |
| 7. | X.Do’smuhammadning “Jajman” hikoyasida ramziy tasvir | Asarni tahlil qilish | 8-9 hafta | 2 |
| 8. | Erkin A’zam qissalari haqida mulohazalar | Asarni tahlil qilish | 8-9 hafta | 2 |
| 9 | Muhammad Yusuf she’riyatida Vatan mavzusi | Shoir she’riyatidan 2 she’r yod olish | 9-10 hafta | 4 |
| 10 | Shavkat Rahmon she’riyati | Shoir she’riyatidan 2 she’r yod olish | 9-10 hafta | 2 |
| 11. | Muhammad Yusuf she’riyatida xalqchillik | Shoir she’riyatidan 2 she’r yod olish | 9-10 hafta | 2 |
| 12. | Usmon Azim she’riyatida lirik qahramon | Shoir she’riyatidan 2 she’r yod olish | 10-11 hafta | 2 |
| 13. | O’.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida Rustam obrazi | Asarni tahlil qilish | 10-11 hafta | 4 |
| 14 | P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshod begin obrazi | Asarni tahlil qilish | 11-12 hafta | 4 |
| 15 | Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida lirik qahramon | Asarni tahlil qilish | 11-12 hafta | 4 |
| 16 | Rauf Parfi she`riyatida falsafiylik | Shoir she’riyatidan 2 ta she`r yod olish | 12-13 hafta | 2 |
| 17 | Ulugbek Hamdamning “Isyon va Itoat” romani va | Asarni tahlil qilish | 12-13 hafta | 2 |

| | | | | |
|----|---|---|----------------|----|
| | adabiy tanqid | | | |
| 18 | U.Hamdamning “Muvozanat” romanida obrazlar tizimi | Shoir she’riyatidan 2 she’r yod olish | 13-14 hafta | 2 |
| 19 | “Shovqin” romanida ramziylik | Asarni tahlil qilish | 13-14 hafta | 4 |
| 20 | X.Rustamova she’riyatida lirik qahramon | Asarni tahlil qilish | 15-16 hafta | 2 |
| 21 | I.Mirzo she’riyatida Vatan mavzusi | Asarni tahlil qilish va 2ta she’r yod olish. | 16-17 hafta | 2 |
| | | | Jami: | 60 |

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni
Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga
olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy ta’lim.

Dasturning informatsion uslubiy ta’mnoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- adiblar ijodi va ularning asarlarini o‘rganishga bag‘ishlangan mavzular zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o‘tkaziladi;
- adiblar asarlarini tahlil qilish obrazlarni o‘rganish hamda badiiy poetik jihatdan tahlilga tortishga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, “ish o‘yini” va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;

– shoirlar yaratgan she`rlarni badiiy jihatdan tahlilga tortishga bag`ishlangan amaliy mashg`ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

“Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

“Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg`ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish arajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o’tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg`ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o’tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o’tkaziladi va shakli (test) o‘quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

ON o’tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o’tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaNni o’tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin.

Bunday hollarda YaN qayta o’tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Zamonaviy o’zbek adabiyoti va adabiy jarayon» fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

| BALL | BAHO | TALABALARNING BILIM DARAJASI |
|--------|------------|---|
| 86-100 | A`lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 71-85 | yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. |
| 55-70 | qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish |
| 0-54 | qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik. |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo‘yicha 55bal va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi. Talabaning semestrda JN va ON turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi. Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalarning O.N.da to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| t/n | KO‘RSATKICHLAR | ON ballari | |
|-----|--|---------------|-------------|
| | | Maksimal ball | Oraliq bali |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftalarining yuritilishi va to‘liqligi. | 15 | 0-15 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish. | 10 | 0-10 |
| 3 | Og‘zaki savol -javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha | 10 | 0-10 |
| | Jami ON ballari | 35 | 35 |

Talabalarning JNda to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| T/n | KO‘RSATKICHLAR | JN ballari | | |
|-----|--|------------|-------|-------|
| | | Mak. ball | J.N-1 | J.N-2 |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy | 15 | 0-7 | 0-8 |

| | | | | |
|---|--|----|-----|-----|
| | mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlарining yuritilishi va holati | | | |
| 2 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 |
| | Jami JN ballari | 35 | 17 | 18 |

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida bo‘lib, yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

| /n | KO‘RSATKICHLAR | YaN ballari | |
|----|---|---------------|--------------------|
| | | Maksimal ball | O‘zgarish oralig`i |
| 1 | Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati | 30 | 0-30 |
| | Jami YaN ballari | 30 | 30 |

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshiriladi, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-3 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

Dasturning informasion-metodik ta'minoti

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning «Muammoli ta'lim» texnologiyasining «Munozarali dars» metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati: Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq –T.: O'zbekiston, 2016. –56-bet.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

2. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007
3. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T., 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Azim Suyun. O'zlik. – T.: Sharq, 1999
6. To'rayev D. Davr va ijod ma'suliyati. T.: Yangi asr avlodi, 2004
7. O'zbek modern she`riyati. – T.: Yangi asr avlodi, 2003
8. Rauf Parfi. So'nggi vido. – T.: O'zbekiston, 2006
9. Erkin A'zam. Shovqin. Roman. – T.: O'zbekiston, 2011
10. Omon Matjon. Xaloskor ruh. Badiha qissa. – T.: Ijod uyi, 2004
11. Sh.Xolmirzayev. Saylanma. 1 jild. – T.: Sharq, 2003
12. Erkin Vohidov. Saylanma. 3 jild. – T.: Sharq, 2000-2001
13. Abdulla Oripov. Saylanma. Tanlangan asarlar. 1-4 jildlar. – T.: Sharq, 2000-2001
14. Bahrom Ro'zimuhammad. Kunduz sarhadlari. T.: Mehnat, 1999

- 15.** Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: Sharq, 1997
 - 16.** Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
 - 17.** H.Xudoyberdiyeva. Saylanma. – T.: Sharq, 2000
 - 18.** Uchqun Nazarov. Paymona. Roman. – T.: O'zbekiston, 2011
 - 19.** To'xtaboyev X. Sariq devni minib. – T.: Sharq, 2000
 - 20.** Jamol Kamol. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. 1 jild. – T.: Fan, 2007
 - 21.** Norqobilov N. Dashtu dalalarda. – T.: G.'.G'ulom, 2009
 - 22.** Shukur E. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002
 - 23.** Isajon sulton. Boqiy darbadar. Roman. Sharq yulduzi, 6-son, 2010
 - 24.** Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon. O'UM, O'zMU 2011.
O'zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
- 25.** WWW.literature.uz
 - 26.** <http://ziyonet.uz>
 - 27.** <http://natlib.uz>
 - 28.** <http://www.bukinistu.ru>